

**TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MUSIQA SAN'ATINING
MA'NAVIY-MADANIY KAMOLOTIMIZDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**

Qudratova Gulzoda Otabek qizi
JDPI “Musiqa madaniyati” fakulteti
Musiqa ta’limi yo‘nalishi, 302 -bosqich talabasi
MunojatAxrorova,
Ilmiy rahbar: “Musiqa madaniyati” fakulteti Musiqa
ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk nemis kompozitori Iogann Sebastyan Baxning hayoti va uning yaratgan asarlari haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan bo‘lib, shuningdek polifoniya janri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: polifoniya, klavesinist, erkin passajlar, prelyudiya, fuga.

Jahon musiqa san’atida o‘chmas iz qoldirgan daho kompozitor qatorida I.S.Bax nomi alohida o‘rin egallaydi. Bugunda kompozitorning jahon musiqa san’atida o‘rni va mavqeい shu darajada yuqori baholanadiki, unga qiyoslab teng topilgan hech bir ijodkor nomini bir qatorga qo‘yib bo‘lmaydi, deb ta’kidlanadi va bu haqiqatdan ham shunday.

I.S.Bax ijodi ma'lum ma'noda o‘zi yashagan davriga yakuniy xulosa yasab berdi desak adashmaymiz. Uning musiqasi o‘z ichiga kompozitoridan avval musiqa olamida ochilgan, rivojlanib an'anaga aylangan barcha musiqiy jahbalar o‘rin olib ularga tayanib ijod qiladi. Kompozitor nemis organ musiqasi, Uyg‘onish davrining xor polifonik san’ati, italyan va nemis skripka mакtablarining yorqin va mahoratlil bilimdoni bo‘lgan. O‘z vaqtida I.S.Baxning notalarni xattotlik yozish san’ati hammani lol qoldirib kelgani bois u zamondoshlarining asarlarini notaga ko‘chirib, bu yo‘l orqali fransuz klavesinistlari (avvalo Kyuperen), italyan skripka ustalari va sozandalari (Korreli, Vivaldi), bir qator italyan opera vakillarining taniqli asarlari bilan bevosita tanishish va o‘rganishga muvaffaq bo‘lgan.

I.S.Bax ijodi o‘zining betakror va kengligiga qaramay o‘z vaqtida mashhur bo‘lgan. U “opera” janrini chetlab o‘tadi. Ammo shuni qayd qilish lozimki, Bax qalamiga mansub dunyoviy kantatalar va hajviy intermediyalar Italiyada qayta to‘qilgan buffa operalardan katta farq qilmagan. Kompozitor ularni ba’zida drama-per music deb atashi bejiz bo‘lgan. Kompozitorning “Kofeyalik”, “Dehqonchilik” kantatatalari, o‘zining hayotiy lavhalari bilan nemis “zingshpil” opera janri tug‘ilishiga zamin yaratdi. Muallif asarlarining mavzui va g‘oyaviy mazmuni o‘zining hajmi va kengligi bilan ajralib turadi.

Unga bir xil ravishda chuqur qayg‘u va iztirob, yengil hajviya, keskin dramatizm va falsaviy hayoliy dunyo olamiga xos. G.F.Gendel kabi I.S.Bax o‘z davrining ilg‘or g‘oyalarini, islo hatchchilik ko‘targan diniy-falsafiy qarashlarini aks etishga harakat qiladi.

Baxning klavir ijodi. “Yaxshi temperatsiya qilingan klavir”.

I.S.Baxning prelyudiya va fugulardan tashkil topgan va “Yaxshi temperatsiyali klavir” deb nom qozongan turkum musiqa san’atining eng yuksak natijasi deb bejiz aytishmaydi. Uni yaratilishi jarayonida Bax o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yan – klavirda chaluvchilarni barcha 24 major va minor tonalliklar bilan tanishtirishdir (o‘sha davrda ko‘p belgili tonalliklar musiqa amaliyotida deyarli ishlatilmagan). Bax musiqa cholg‘ularini yangi temperatsiya moslanishi qulayligini qadimda o‘rin olgan tabiiy tuzilmadan afzalligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Baxdan avval temperatsiya g‘oyasini boshqa san’atkorlar ham qo‘llaganlar, masalan, Paxelbel, Matteson, biroq Baxning bu masalani ijodiy va badiiy yechimi o‘zini ko‘zlagan maqsadi va ilhomi darajasi bo‘yicha o‘zgacha bo‘ldi.

Birinchi jildni yaratilishi 1722-yillarda, ikkinchisi 1744-yillarga to‘g‘ri keladi, ular turli yillarda yozib olingan asarlardan iborat. Har bir prelyudiya va fuga juftlik sifatida yuqoriga harakatlangan xromatik gamma bo‘yicha joylashgan. Har bir tonallik o‘zining kayfiyati va mazmunini ko‘rsatishga qaratiladi. Masalan: D-dur energik kuch va dabdabadorlik, c-moll keskin dramatizm va patetika, h-moll qayg‘uli iztirobli kechinmalar bilan bog‘liq, es-moll va b-moll qayg‘u alam,

E-dur va Fis-dur tabiatning nozik timsollari bilan gavdalanadi, B-dur tonalligi “chaqaloq va farishtalar” singari toza va nafosatlidir.

Baxning organ ijodi kabi “YaTK” turg‘un polifonik turkum namunasi bo‘lib qismlari bir biriga solishtiriladi: prelyudiyani erkin badihaligiga, fuganing qat’iy rivojlov tamoyillari. Baxning mazkur juftliklarining prelyudiyalari kompozitsion va timsoliy doirasi bo‘yicha rang-barang. Ular orasida organ tokkatasi kabi (c-moll, Es-dur), skripka improvizatsiyalari (D-dur), xalq-janr raqslari (As-dur), “ariyalar” (es-moll, cis-moll, fmoll, g-moll), pastorallar (E-dur), trio singari ikki ovoz “basso continuo” uchun namunalar uchraydi (h-moll). Ko‘plab prelyudiyalar invensiyalarni eslatadi – ikki ovozli (Cis-dur, F-dur, a-moll, fis-moll) va uch ovozli (E-dur, gis-moll, A-dur, H-dur).

Shakl bo‘yicha prelyudiyalar ikki guruhga ajratiladi:

I – erkin rivojlangan “sokin yoyilgan” fakturali asarlar (masalan, prelyudiya C-dur, cmoll, D-dur) ularga badihalik xos bo‘lib, aynan yakuniy qismlarda yorqin ifojasini topadi (erkin passajlar, temp o‘zgarishi, rechitativlar-sokin badihalikda ma’lum burilish yasaydi).

II – qadimgi ikki qismlik shakliga bo‘ysingan shakllari (masalan, prelyudiya es-moll, g-moll).

Fugalar ham Baxning katta ijodiy fantaziyasidan darak beradi. Har biri o‘zining qiyofasiga ega bo‘lib bu qiyofa o‘ziga xos mavzu, xarakteri, rivojlanish tamoyilli, ovozlar soni va ularni o‘zaro aloqadorligi bilan belgilanadi. Ayrim fugalar strettali to‘la mavzular o‘tilishi bilan tavsiflanadi (C-dur, cis-moll, d-moll, es-moll, g-moll, b-moll), ayrimlarda esa strettalar umuman o‘rin olmagan (c-moll, D-dur, B-dur, h-moll). Ba’zi fugalarda intermediyalarni ahamiyati nihoyat katta (c-moll, D-dur), boshqalarda esa ular yo‘q (C-dur). Polifonik murakkablikni darajasi Bax turkumida fugalarni ovozlar soniga bog‘liq bo‘lmaydi.

Barchamizga tarixiy manbalardan ma’lumki, I.S.Baxni polifonianing otasi deb hisoblaymiz. Yuqorida berilgan ma’lumotlardan bilib olsak bo‘ladi Bax haqiqatdan ham polifonianing otasi. Undan keyingi kompozitorlar ham polifoniya

janrida ijod qilgan bo‘lishsada, ammo u asarlarning mukammalligi Bax yaratgan polifonik asarlar kabi emas.

“YaTK”ni yaratishiga sabab u barcha klavir ijrochilarga uning har tomonlama mukammaligini yoritib berish, barcha notalarni major va minor 24 tonalliklarini bir biridan uyg‘unligi, farqi, rang barangligi bilan tanishtirish bo‘lgan. “Yaxshi temperatsiyalangan klavir”ni Bax badiiy amaliyotda temperatsiyalangan tovushqatorning barcha tonalliklaridan foydalana olish uchun yaratgan edi”.